

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.01.2020.I.20.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

BAYNIYAZOV TEMIRNIYAZ SHERNIYAZOVICH

**SERVIS KORXONALARIDA XIZMAT KO‘RSATISH JARAYONLARI
SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY
MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.05 – Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of Doctor of philosophy (PhD) in economic
sciences**

Bayniyazov Temirniyaz Sherniyazovich

Servis korxonalarida xizmat ko‘rsatish jarayonlari samaradorligini oshirishning
tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....3

Байниязов Темирнияз Шерниязович

Совершенствование организационно-экономического механизма повышения
эффективности процессов оказания услуг на сервисных
предприятиях..... 27

Bainiyazov Temirniyaz Sherniyazovich

Improvement of the organizational and economic mechanism for increasing the
efficiency of service delivery processes at service enterprises.
..... 53

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 57

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.01.2020.I.20.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

BAYNIYAZOV TEMIRNIYAZ SHERNIYAZOVICH

SERVIS KORXONALARIDA XIZMAT KO'RSATISH JARAYONLARI
SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING TASHKILIIY-IQTISODIY
MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Nukus – 2025

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PHD/Iqt4351 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.karsu.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Bayjanov Sarsengaliy Xalmuratovich
iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Norchayev Asatullo Norbo'tayevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Berdiyev Anvar Abduraxmonovich
iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD 03/30.01.2020.I.20.06 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "30" iyul kuni soat 16⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-60-78; e-mail: karsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya ishi bilan Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (333 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-60-78, e-mail: karsu_info@edu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "14" iyul kuni tarqatildi.

(2025-yil "14" iyul dagi № 82 raqamli reestr bayonnomasi).



J.K.Sauxanov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

R.B.Utemuratov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, PhD, dotsent

B.S.Qalmuratov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida servis korxonalarida xizmat ko'rsatish jarayonlari samaradorligini oshirish iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshlikning muhim sharti bo'lib, bu jarayon korxonalar resurslaridan oqilona foydalanish va ishlab chiqarish xarajatlarini minimallashtirish orqali foydalilik va iste'molchilar qoniqishini oshirishga olib keladi. Xizmat ko'rsatish jarayonlarining samaradorligi yuqori bo'lgan korxonalar innovatsion yechimlarni joriy etish, yangi bozor segmentlarini o'zlashtirish hamda iste'molchilar ehtiyojlariga tezkor va moslashuvchan ravishda javob berish imkoniyatini yaratadi, natijada ularning bozordagi o'rni mustahkamlanib, umuman olganda, jahon iqtisodiyotining umumiy barqarorligi va raqamli transformatsiya jarayonlariga moslashuvchanligi oshadi. "Iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan davlatlarda yalpi ichki mahsulot tarkibida xizmat ko'rsatish sohasining ulushi 65-80 %ni, ilm-fan va innovatsion faoliyatni investitsiyalashga sarflanayotgan mablag'lar hissasi esa 3,0 %ni tashkil etmoqda. Shuningdek, rivojlangan davlatlarning xizmat ko'rsatish sohasidagi bandlar ulushi 70,0 %dan ziyodni va to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmining 40,0 %i xizmat ko'rsatish sohasiga to'g'ri kelmoqda"¹. Bugungi kunda servis korxonalarida xizmat ko'rsatish jarayonlari samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda global integratsiya jarayonlarining kuchayishi sharoitida servis korxonalarida xizmat ko'rsatish jarayonlari samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlarning ko'lami kengayib bormoqda. Xizmat ko'rsatish sohasida korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish, servis korxonalarida xizmat ko'rsatish jarayonlari samaradorligini baholash usullarini takomillashtirish, xizmat ko'rsatish sifati va raqobatbardoshligini ta'minlash, xizmat ko'rsatish jarayonlarini modernizatsiyalash va intensivligini ta'minlash, korxonalarining xizmat ko'rsatish jarayonlari samaradorligini oshirish omillarini aniqlash, servis korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish strategiyasini ishlab chiqish, xizmat ko'rsatish jarayonlarini boshqarishning samarali usullarini joriy etish, servis korxonalarini faoliyatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish kabi ilmiy muammolar bu boradagi tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Bugungi kunda Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatish korxonalarini barqaror rivojlanishi, ularning xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblangan xizmat ko'rsatish jarayonlari samaradorligini oshirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. "Hududlarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish orqali xizmat ko'rsatish hajmini 3 baravarga oshirish hamda 36 mingta savdo va servis obyektlarini tashkil etish"² kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Bu vazifalarni hal etishda xizmat ko'rsatish sohasida korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish, servis korxonalarida xizmat

¹ <http://stats.oecd.org/>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/6600413>

ko'rsatish jarayonlari samaradorligini baholash usullarini takomillashtirish, xizmat ko'rsatish jarayonlarini boshqarishning samarali usullarini joriy etish, servis korxonalari faoliyatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish kabi yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqotlarni chuqurlashtirish dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida", 2021-yil 30-sentabrdagi PF-6318-son "Xizmatlar sohasini qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlari, 2020-yil 16-iyundagi PQ-4752-son "Xizmatlar sohasini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 27-apreldagi 246-son "Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozorini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Servis iqtisodiyotining shakllanishi, resurslardan foydalanish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, mehnat jarayonlari samaradorligini oshirish masalalarining ilmiy asoslari xorijlik olimlar, jumladan, Keyns J.M., Marshall A., Fisher M., Xaksever K.X., Render B.R., Rassel R.S., Merdik R.G., Shumpeter Y.A. va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan³.

Xizmat ko'rsatish va servis sohasi rivojlanishining ilmiy-metodologik jihatlari xorijlik olimlar, jumladan: Burmenko T.D., L.Demidova, Romanovich V.K., Korobkova S.N., Kravchenko V.I., Orlov S.V., Pavlova I.P., Rummyanseva Ye.Ye., Zaichenko S.A. va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan⁴.

Ushbu muammolarni o'rganishga o'zbekistonlik olimlardan M.E.Po'latov, M.Q.Pardayev, J.K.Sauxanov, Q.J.Mirzayev, I.S.Tuxliyev, N.U.Arabov,

³ Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег / Пер. сангл. проф. Н.Н.Любимова, под. ред. д.э.н., проф. Л.П.Куракова. – М.: МИЭМП, 2010; Маршалл А. Принципы экономической науки / А.Маршалл: В 3 т. – М.: Прогресс-Т.3. 1984. -119 с.; Regional labor markets. Analytical contributions and cross-national comparisons. Ed. by. M.Fischer and P.Nijkamp. - Elsevier Science Publishing Co, 1987. -500 p.; Управление и организация в сфере услуг: теория и практика: Service Management and Operation – 2-е международ. изд. (пер. с англ под науч. ред. В.В.Кулибановой) / К.Х.Хаксевер, Б.Р.Рендер, Р.С.Рассел, Р.Г.Мердик. – СПб и др.:ПИТЕР, ПИТЕР бух, 2002. – 751 с.; Шумпетер Й. Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия [Текст] / Й. Шумпетер: пер. с англ. предисл. В.С. Автономова. – М.: ЭКСМО, 2007. – 864 с.

⁴ Бурменко Т. Д. Сфера услуг: экономика: учебное пособие / Т.Д. Бурменко, Н.Н. Даниленко, Т. А. Туренко; под ред. Т.Д. Бурменко. - М.: КНОРУС, 2007. – С. 661; Демидова Л. Сфера услуг: изменение динамики производительности/Л.Демидова // Мировая экономика и международные отношения, 2006, №12. – С. 40-52.; Управление и организация в сфере услуг: теория и практика: Service Management and Operation – 2-е международ. изд. (пер. с англ под науч. ред. В.В.Кулибановой) / К.Х.Хаксевер, Б.Р.Рендер, Р.С.Рассел, Р.Г.Мердик. – СПб, 2002. – 751 с.; Романович В.К. Сервисная деятельность: учеб. пос.: под общ. ред В.К.Романович. / С.Н.Коробкова, В.И.Кравченко, С.В.Орлов, И.П.Павлова – 3-е изд. – СПб.: Питер, 2005. – 156 с.; Румянцева Е.Е. Новая экономическая энциклопедия: 4-е изд. – М.: ИНФРА-М, 2011. - XII, 882 с. + DVD-R, - С. 717-718; Заиченко С.А. Развитие инноваций в сфере услуг // Форсайт. 2007. - № 1. – С. 30-33.

G.X.Utemuratova, X.M.Abdusattarova va boshqalarning ilmiy ishlari bag‘ishlangan⁵.

Ammo yuqorida keltirilgan olimlarning asarlarida servis korxonalarida xizmat ko‘rsatish jarayonlari samaradorligini oshirishning ayrim jihatlari o‘rganilgan. Shuningdek, korxonalarda xizmat ko‘rsatish jarayonlari samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi kompleks tadqiqot sifatida qisman o‘z aksini topgan. Hozirgi vaqtda servis korxonalarida xizmat ko‘rsatish jarayonlari samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bilan bog‘liq tadqiqotlar yetarli darajada emasligi ushbu mavzuda chuqur ilmiy-uslubiy izlanishlarni amalga oshirishni zarurat etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq PZ-2017-092718 – “Qoraqalpog‘iston Respublikasida ekologik turizmni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish” mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida servis korxonalarida xizmat ko‘rsatish jarayonlari samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

“samaradorlik” va “xizmat ko‘rsatish jarayoni samaradorligi” kategoriyalarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini ilmiy-nazariy tahlil qilish hamda mualliflik yondashuvini shakllantirish;

servis korxonalarida xizmat ko‘rsatish jarayonlari samaradorligini oshirish tamoyillarini ishlab chiqish;

servis korxonalarini faoliyati samaradorligini tadqiq etishga ilmiy yondashuvlarni asoslash;

servis korxonalarida xizmat ko‘rsatish jarayonlari samaradorligini baholash usullarini tasniflash;

Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanish holati va tendensiyalarini tahlil qilish;

servis korxonalarida xizmat ko‘rsatish jarayonlari samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlarni tahlil qilish;

servis korxonalarini faoliyati rivojlanishining omillari tahlilini amalga oshirish;

servis korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish strategiyasini ishlab chiqish;

⁵ Pardav M.Q., Isroyilov J.I., G‘apparov A.Q. Xizmat ko‘rsatish sohasida iqtisodiy tahlilni takomillashtirish muammolari. Risola. – Samarqand: Zarafshon, 2009. – 66 b. – 4,1 b.t.; Po‘latov M.E., Mirzaev Q.J., Sultonov Sh.A., Shavqiev E. Global iqtisodiy rivojlanish (turizm iqtisodiyoti). O‘quv qo‘llanma. – T.: Fan va texnologiya, 2018. – 296 b.; Sauxanov J.K., Zarikueva M.M. Evroaziya ekonomikalik sholkemini saliq sistemasini integratsiya processlari shariatida salistirmali talqlaw. // QQDU Xabarnomasi. – Nukus, 2023. № 2. – B. (60) 109–111.; Tuxliev I.S., Hayitboev R., Safarov B.Sh., Tursunova G.R. Turizm asoslari. Darslik. – T.: Fan va texnologiya, 2014. – 332 b.; Arabov N.U., Artikov Z.S. Servis korxonalarida xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish. // Inson kapitali va ijtimoiy rivojlanish jurnali. – Samarqand: SamDU, № 1, 2021. – B. 153–164.; Utemuratova G.X. Xizmat ko‘rsatish sohasida davlat-xususiy sherikligi rivojlanishining metodolgik asoslarini takomillashtirish. Iqt. fan. dok. (DSc) diss. – Nukus, 2023; Abdusattarova X.M. Innovatsiya strategiyasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, 2011. – b. 10.

korxonalarda xizmat ko'rsatish faoliyatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish;

Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish istiqbollari bo'yicha ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Qoraqalpog'iston Respublikasi xizmat ko'rsatish tarmoqlari va korxonalari faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmeti bo'lib iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida servis korxonalarida xizmat ko'rsatish jarayonlari samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bilan bog'liq munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tizimli tahlil, guruhlash, induksiya va deduksiya, statistik va solishtirma tahlil, abstrakt-mantiqiy yondashuv, ekonometrik modellashtirish, prognozlashtirish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "xizmat ko'rsatish jarayoni samaradorligi" tushunchasining iqtisodiy mazmuni xizmatlarni taqdim qilish jarayonida resurslarning minimal sarflanishi hisobiga belgilangan sifat standartlari va mijozlar ehtiyojlarini qondirish darajasiga erishish hamda bu jarayon natijasida tashkilotning iqtisodiy manfaatlari va raqobatbardoshligini ta'minlash imkoniyatini aks ettiruvchi iqtisodiy kategoriya sifatida takomillashtirilgan;

servis korxonasining innovatsion muhiti va resurs salohiyatini baholash asosida innovatsion strategiyani amalga oshirishning 4 bosqichdan (diagnostika, strategiyani tanlash, moliyalashtirish va monitoring) iborat fazali modeli har bir bosqichdagi (ilmiy tadqiqot sarflari/daromadlar nisbati – 3-5%, xizmatlar diversifikatsiyasi indeksi – 0,6 va yuqori) miqdoriy qiymatlari orqali takomillashtirilgan;

xizmat ko'rsatish jarayonlarini optimallashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan dastur doirasida mijozlar ehtiyojlariga muvofiqlashgan xizmat turlarini diversifikatsiya qilish, xizmat ko'rsatish vaqtini qisqartirish (o'rtacha 12-15%) va xizmatlar sifatini baholash indeksi (CSQI – Customer Service Quality Index)ni 80 balldan 90 ballga ko'tarish orqali xizmat ko'rsatish jarayonlari samaradorligini oshirish asoslangan;

Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmatlar bozorini barqaror rivojlanish tendensiyalarini ifodalovchi ekonometrik model asosida jami xizmatlar hajmini oshirishning 2030 yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

servis korxonalari faoliyatini natijadorligini oshirishning ilmiy asosi sifatida "samaradorlik" va "xizmat ko'rsatish jarayoni samaradorligi" kategoriyalarining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuniga oid mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan;

servis korxonalarida xizmat ko'rsatish jarayonlari samaradorligini oshirishning ilmiylik, komplekslilik, moslashuvchanlik, maqsadga yo'naltirilganlik, mehnat unumdorligining uzluksiz o'sishini ta'minlash, doimiy analitik ta'minot va axborotning yetarliligi tamoyillari ishlab chiqilgan;

servis korxonalarida iqtisodiy o'sishni integral baholash usuli mehnat unumdorligi va fondlar qaytimi ko'rsatkichlarini ifodalovchi intensiv hamda

ishchi-xodimlar va asosiy fondlar ko'rsatkichlari bilan bog'liq ekstensiv omillarni indeks taqqoslash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Tadqiqot natijalarining ishonchligi qo'llanilgan yondashuvlar va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasining statistik ma'lumotlaridan olingani hamda tegishli xulosa va tavsiyalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiya da ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan xizmat ko'rsatish sohasida korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish, servis korxonalarida xizmat ko'rsatish jarayonlari samaradorligini baholash usullarini takomillashtirish, xizmat ko'rsatish jarayonlarini boshqarishning samarali usullarini joriy etish, servis korxonalar faoliyatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlarida ilmiy apparatni boyitish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarning amaliy ahamiyati korxonalarda xizmat ko'rsatish jarayonlari samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish, servis korxonalarida resurslardan samarali foydalanish, mehnat unumdorligini oshirish, sohaga oid me'yoriy hujjatlarni tayyorlash, shuningdek, korxonalarda xizmat ko'rsatish jarayonlari intensivligini oshirishga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda, "Iqtisodiyot nazariyasi", "Innovatsion iqtisodiyot", "Xizmat ko'rsatish tarmoqlar iqtisodiyoti" fanlari bo'yicha o'quv dasturlarini takomillashtirish, darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Servis korxonalarida xizmat ko'rsatish jarayonlari samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "xizmat ko'rsatish jarayoni samaradorligi" tushunchasining iqtisodiy mazmuni xizmatlarni taqdim qilish jarayonida resurslarning minimal sarflanishi hisobiga belgilangan sifat standartlari va mijozlar ehtiyojlarini qondirish darajasiga erishish hamda bu jarayon natijasida tashkilotning iqtisodiy manfaatlari va raqobatbardoshligini ta'minlash imkoniyatini aks ettiruvchi iqtisodiy kategoriya sifatida takomillashtirish bilan bog'liq nazariy va uslubiy materiallardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Sohalar iqtisodiyoti va menejmenti" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 4-martdagi 55-son buyrug'i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda xizmatlarni taqdim qilish jarayonida iqtisodiy manfaatlar va raqobatbardoshlikni ta'minlash imkoniyatini aks ettiruvchi iqtisodiy kategoriya sifatida takomillashtirilgan xizmat ko'rsatish jarayoni samaradorligi tushunchasiga oid nazariy bilimlarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

servis korxonasining innovatsion muhiti va resurs salohiyatini baholash asosida innovatsion strategiyani amalga oshirishning 4 bosqichdan (diagnostika, strategiyani tanlash, moliyalashtirish va monitoring) iborat fazali modeli har bir

bosqichdagi (ilmiy tadqiqot sarflari/daromadlar nisbati – 3-5%, xizmatlar diversifikatsiyasi indeksi – 0,6 va yuqori) miqdoriy qiymatlari orqali takomillashtirish taklifi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan “Qoraqalpog‘iston Respublikasini 2025-2026-yillarda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning Yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqishda foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 1-apreldagi PC/01-09/97-son ma’lumotnomasi). Ushbu taklifdan foydalanish korxonaning innovatsion strategiyasini ishlab chiqish asosida kelgusida muayyan samaradorlikka erishish rejasini izchil amalga oshirishning aniqlik darajasini oshirishga xizmat qilgan;

xizmat ko‘rsatish jarayonlarini optimallashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan dastur doirasida mijozlar ehtiyojlariga muvofiqlashgan xizmat turlarini diversifikatsiya qilish, xizmat ko‘rsatish vaqtini qisqartirish (o‘rtacha 12–15%) va xizmatlar sifatini baholash indeksi (CSQI – Customer Service Quality Index)ni 80 balldan 90 ballga ko‘tarish orqali xizmat ko‘rsatish jarayonlari samaradorligini oshirish taklifi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan “Qoraqalpog‘iston Respublikasini 2025-2026-yillarda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning Yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqishda foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 1-apreldagi PC/01-09/97-son ma’lumotnomasi). Ushbu taklifdan foydalanish korxonalarda xizmat ko‘rsatish jarayonlarini optimallashtirish orqali samaradorlikni oshirish va iste’molchilar talablarini to‘liqroq qondirish imkonini bergan;

Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmatlar bozorini barqaror rivojlanish tendensiyalarini ifodalovchi ekonometrik model asosida jami xizmatlar hajmini oshirishning 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko‘rsatkichlaridan “Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmatlar bozorini 2025-2030-yillarda rivojlanish strategiyasi”ni ishlab chiqishda foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 1-apreldagi PC/01-09/97-son ma’lumotnomasi). Mazkur tavsiyalardan foydalanish 2025-2030 yillarda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida respublikada aholi jon boshiga to‘g‘ri kelgan xizmatlar hajmini 47,8 % ga va kichik biznes subyektlari tomonidan ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmini 40,4 % ga oshishi imkonini yaratishga muayyan darajada xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobaesiyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta, jumladan, 5 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o‘tkazilgan va ijobiy xulosalar olingan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo‘yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 141 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obykti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilishning sinovdan o‘tganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining **“Servis korxonalarida xizmat ko‘rsatish jarayonlari samaradorligini oshirishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida servis korxonalarini faoliyatining natijadorligini oshirishning ilmiy asosi sifatida “samaradorlik” va “xizmat ko‘rsatish jarayoni samaradorligi” kategoriyalarining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuniga oid mualliflik ta‘rifi ishlab chiqilib, servis korxonalarini faoliyati samaradorligini tadqiq etishga ilmiy yondashuvlar nazariy jihatdan yoritib berilgan. Shuningdek, servis korxonalarida xizmat ko‘rsatish jarayonlari samaradorligini baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari tasnifi ishlab chiqilgan.

Servis iqtisodiyotining shakllanishi va rivojlanib borishi rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan mamlakatlarning yalpi ichki mahsulot tarkibini ham o‘zgarishiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatmoqda. Hozirgi vaqtda muayyan mamlakatni rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo‘shish uchun yaratilayotgan yalpi ichki mahsulot tarkibida xizmat ko‘rsatish sohasi hissasining 65 foizdan yuqori bo‘lishi asosiy mezon hisoblanadi.

Xizmat ko‘rsatish sohasi bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularning tahlili servis korxonalariga makroiqtisodiy tebranishlar va tegishli bozorlarda raqobatning kuchayishi natijasida uni kamaytirish bilan real hayotdagi muammolarni bartaraf etishga qaratilgan samaradorlikni oshirish vositalari va mexanizmlarini ishlab chiqishda yordam beradi. Ushbu xususiyatlar orasida ko‘pchilik xizmat ko‘rsatish korxonalarini biznesining nisbiy moslashuvchanligi, iste‘molchilar talabi va xohishlarining o‘zgarishiga tezda javob berish qobiliyati, sanoat ishlab chiqarishiga nisbatan xizmat ko‘rsatish ishlab chiqarishining kapital sig‘imi va fond sig‘imining pastligi sababli qisqa vaqt ichida uni diversifikatsiya qilish va qayta ixtisoslashtirish zaruratini dolzarb qilib qo‘ymoqda. Ushbu xususiyatlar xizmat ko‘rsatish sohasining raqobatdosh ustunliklari sifatida ko‘rib chiqilishi kerak, buning asosida keng ko‘lamli boshqaruv vazifalarini, shu jumladan xizmat ko‘rsatish jarayonlari samaradorligini baholash va oshirish bilan bog‘liq vazifalarni hal qilish mumkin.

Muallif yondashuviga ko‘ra, samaradorlik – bu muayyan davrda xo‘jalik yurituvchi subyektlar rivojlanishining ijobiy dinamikasini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkich sifatida natija (samara)ning uni olishga qilingan xarajatlarga nisbatini ifodalovchi kompleks ijtimoiy-iqtisodiy tushunchadir. Ishlab chiqarish (xizmat ko‘rsatish) samaradorligi – ishlab chiqarish vositalari va mehnatdan muayyan vaqt oralig‘ida foydalanishning yakuniy natijalarini har tomonlama aks etirishni ifodalaydi. Xizmat ko‘rsatish jarayoni samaradorligi – bu korxonalar (firma)ning xizmat ko‘rsatish jarayonida ishlab chiqarish vositalari va mehnatdan ma‘lum bir

vaqt oralig'ida foydalanishning yakuniy natijalarini har tomonlama aks ettiruvchi hamda uning barcha xo'jalik faoliyatini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Servis korxonalarida xizmat ko'rsatish jarayonlari samaradorligini oshirish bir qator tamoyillarga asoslanishi zarur bo'lib, ushbu tamoyillarning tavsifi 1-jadvalda keltirilgan. Xizmat ko'rsatish samaradorligi asosan iste'molchilarning talablarini to'liq qondirish va yuqori natijadorlikka erishishga yo'naltirilgan xizmat ko'rsatish jarayonlariga xos bo'lgan kategoriyadir, chunki samaradorlik muammolarini o'rganish obyektlaridan biri, uning omillari xarajatlarini oshkor qilish bilan bog'liq xizmat ko'rsatish jarayonidir. Har qanday xizmat ko'rsatish muayyan jarayondagi munosabatlaridan qat'i nazar, ijtimoiy mehnat jarayoni sifatida ifodalanishi mumkin. Shuning uchun xizmat ko'rsatish samaradorligining xizmatlarning har xil turlari uchun umumiy qiymat sifatida belgilab, xizmat ko'rsatish samaradorligi ma'lum miqdordagi ijtimoiy mehnat xarajatlari uchun aniq iqtisodiy natijani olish sifatida baholanishi kerak.

1-jadval


Servis korxonalarida xizmat ko'rsatish jarayonlari samaradorligini oshirish tamoyillari⁶

Tamoyillar	Mazmuni
Ilmiylik	Servis korxonalarida xizmat ko'rsatish jarayonlarini ilmiy asosda tashkil etishni, ya'ni ishchi-xodimlarning mehnat natijalaridan manfaatdorligini oshib borishi, xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash, fan-texnika yutuqlarini xizmat ko'rsatish jarayonlariga joriy etish, zamonaviy xizmatlar turlarini kengaytirishni nazarda tutadi. Xizmat ko'rsatish jarayonlarini ilmiy asosda tashkil etish tashqi muhit omillari ta'sirini hisobga olgan holda o'zining substansial asosi va tizimli sifatini transformatsiyalab hamda modifikatsiyalab borish orqali samaradorlikni oshirishni nazarda tutadi.
Komplekslilik	Servis korxonalarida xizmat ko'rsatish jarayonlari samaradorligini oshirishda nafaqat uning iqtisodiy jihatlari, balki ijtimoiy, huquqiy, psixologik, tashkiliy-texnik, axborot kabi jihatlari hisobga olish zarurligini nazarda tutadi.
Moslashuvchanlik	Mazkur tamoyil ba'zi xizmatlarning mavsumiy tavsifga ega ekanligini hisobga olgan holda xizmat ko'rsatish jarayonlarining uzluksizligini ta'minlash bo'yicha "moslashuvchan" usullarni joriy qilish zarurati, xizmatlar bozorida holatlarning dinamik o'zgarishiga moslashuvchan munosabat bildirish, xizmatlarning innovatsion turlarini kengaytirish kabilarni ifodalaydi.
Maqsadga yo'naltirilganlik	Servis korxonalarida barqaror rivojlanishining ijtimoiy va iqtisodiy maqsadlarini realizatsiya qilishga yo'naltirilgan. Xizmat ko'rsatish jarayonlarida moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan samarali foydalanishda qo'yilgan maqsadlarga erishish hamda iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikni oshirish mezonlari va ko'rsatkichlarini aniqlaydi.
Mehnat unumdorligining uzluksiz o'sishini ta'minlash	Servis korxonalarida ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlikni oshirish, iste'molchilar talabini hisobga olgan holda xizmatlarga talab va taklif bo'yicha o'zaro muvofiqlikka erishish hamda korxonaning iqtisodiy o'sish imkoniyatlarini namoyon etadi.
Doimiy analitik ta'minot va axborotning yetarliligi	Mazkur tamoyilga ko'ra, xizmat ko'rsatish jarayonlari samaradorligini oshirishning ichki va tashqi muhit omillari ta'sirini to'g'ri baholash asosida optimal boshqaruv qarorlarini qabul qilish bilan bog'liq zaruriy axborot ta'minotini nazarda tutadi. Bunda xizmat ko'rsatish jarayonlarini tartibga solishning axborot bazasini takomillashtirish va muvofiq ravishda boshqarish bo'yicha ta'sir choralari ishlab chiqish zarur.

⁶ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Servis iqtisodiyotida xizmat ko'rsatish jarayonlarining asosiy omili bo'lib, inson kapitali hamda axborotlar muhim o'ringa ega hisoblanadi. Hozirgi vaqtda jahondagi mamlakatlarining ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish ko'lami o'z mazmuniga ko'ra, oldingi bosqichlardagi taraqqiyot darajasidan ahamiyatli darajada farqli hisoblanadi. Hozirgi vaqtda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash innovatsion rivojlanish bo'yicha ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) rivojlanishning yangicha konseptual yondashuvni shakllantirishni talab qilmoqda. Shunga ko'ra, servis korxonalari samaradorligini baholashning turli yondashuvlari o'rtasidagi bog'liqlik va komplekslilik tavsifi hamda tashqi va ichki omillar ta'siriga ko'ra, mexanik, ijtimoiy, jamoat tashkiloti va iyerarxik bozor modellariga asoslangan ilmiy yondashuvlar alohida yo'nalishlar bo'yicha guruhlariga ajratilib tasniflandi.

Iqtisodiyotda korxonalar samaradorligini tahlil qilish bo'yicha konsensus mavjud emas. Shuning uchun tashkilotlar mezon va tadqiqot usullarini o'zlari tanlaydilar. Mezon xizmatlar jarayonining samaradorligini oshirish bo'yicha uning mohiyatini va asosiy vazifalarini aniqlaydi. Mezonning asosiy vazifalarini aniqlashda xizmat ko'rsatish samaradorligining yakuniy natijalariga e'tibor qaratish muhim hisoblandi. Yakuniy natija bir qator ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar orqali aniqlanadi. Ushbu holatda xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyati rivojlanishining mezonlari va ko'rsatkichlarini belgilashda sohaning muhim xususiyatlarini tavsiflash lozimdir. Tadqiqot jarayonida servis korxonasi faoliyatini baholashning obyektiv va subyektiv mezonlari tasnifini ishlab chiqildi (1-rasm).



1-rasm. Servis korxonalari faoliyati samaradorligini baholash mezonlari⁷

⁷ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Obyektiv mezonlar – bu raqamlar bilan o‘lchanadigan aniq iqtisodiy ko‘rsatkichlardir. Bularga daromad hajmini oshirish, sof foyda miqdorini ko‘paytirish, korxonalar rentabelligi, korxonalar mablag‘larining o‘zini oqlashi, mahsuldorlik va boshqalar kiradi. Subyektiv mezonlar – bu kuzatishlar va his-tuyg‘ularga asoslangan samaradorlikning ijtimoiy ustuvorlikka ega ko‘rsatkichlari tegishlidir. Bularga xodimlarning samaradorligi, ularning professionalligi, iste’molchilar talabini to‘liq qondirish, mehnatning mazmundorligini oshirish, atrof-muhit omillari va boshqa ko‘rsatkichlar kiradi.

Servis korxonasi faoliyati samaradorligining eng muhim ko‘rsatkichi foyda bo‘lib, u korxonalar faoliyati natijalari – ko‘rsatilayotgan xizmatlar hajmi va tarkibi, mehnat unumdorligi, xarajatlar nisbiy darajasi, samarasiz xarajatlar va yo‘qotishlarning mavjudligi, asosiy fondlar va aylanma mablag‘lardan samarali foydalanish, xodimlarni moddiy rag‘batlantirish, soliqlar to‘lovlari, foydaning mavjudligi asosida korxonaning xarajatlari iste’molchilarga xizmat ko‘rsatishdan olingan daromadlar hisobidan to‘liq qoplanishi kabilarni aks ettiradi. Servis korxonasining foydasi uning barcha daromadlari va xarajatlari o‘rtasidagi farq sifatida hisoblanadi.

Servis korxonasida ko‘rsatilgan xizmatlar narxlari o‘zgarishining foydaga ta’siri quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\Delta F = \sum (N_1 \times L_1) - \sum (N_0 \times L_1), \quad (1)$$

bu yerda, ΔF – ko‘rsatilgan xizmatlar narxlarining o‘zgarishi sababli foyda miqdorining o‘zgarishi;

N_1 – hisobot yilida xizmatlar narxlari;

N_0 – o‘tgan yilgi xizmatlar narxlari;

L_1 – hisobot davrida ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi.

Ko‘rsatilgan xizmatlar hajmidagi o‘zgarishlarning foydaga ta’sirini baholash:

$$\Delta F_h = F_o \times k_1 - F_o = F_o \cdot (k_1 - 1), \quad (2)$$

bu yerda, ΔF – ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi o‘zgarishi sababli foydaning o‘zgarishi;

F_o – o‘tgan davrda xizmatlar ko‘rsatishdan olingan foyda hajmi;

k_1 – ko‘rsatilgan xizmatlar hajmining o‘sish sur’ati.

$$k_1 = \frac{T_h}{T_o}, \quad (3)$$

bu yerda, T_h – hisobot davrida oldingi (bazis) davr narxlarida ko‘rsatilgan xizmatlar tannarxi;

T_o – oldingi (bazis) davr narxlarida o‘tgan davrda ko‘rsatilgan xizmatlar tannarxi.

Ularning tarkibidagi o‘zgarishlar tufayli ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi o‘zgarishining foydaga ta’sirini baholash:

$$\Delta F_s = F_{o'} \times (k_2 - k_1), \quad (4)$$

bu yerda, ΔF_s – xizmatlar tarkibining o'zgarishi sababli ularning ko'rsatiladigan xizmatlar hajmidagi o'zgarishlar hisobiga foydaning o'zgarishi;

k_2 – sotish narxlarida baholangan ko'rsatilgan xizmatlar hajmining o'sish koeffitsiyenti.

$$k_2 = \frac{B_1}{B_0}, \quad (5)$$

bu yerda, B_1 – oldingi (bazis) davr narxlarida haqiqiy tushum;

B_0 – oldingi (bazis) davrning tushumi.

Ko'rsatilgan xizmatlar tannarxini pasaytirishdan tejamning foydaga ta'sirini hisoblash:

$$\Delta F_p = T_h - T_{o'}, \quad (6)$$

bu yerda, ΔF_p – ko'rsatiladigan xizmatlar tannarxini pasaytirishdan tejam tufayli foyda miqdorining o'zgarishi.

Shu asosda, biz, materiallar, mehnat va boshqalar narxlarining foydaga ta'sirini hisoblashimiz mumkin.

Foydaning umumiy hajmini o'zgarishiga turli omillar ta'sirini baholash quyidagi formuladan iborat:

$$\Delta F_y = \Delta F + \Delta F_h + \Delta F_s + \Delta F_p + \dots + \Delta F_n, \quad (7)$$

bu yerda, ΔF_y – n – omil ta'sirida foydaning o'zgarishi.

Xizmat ko'rsatish korxonasi faoliyati samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri – uning asosiy fondlari bilan zarur miqdorda va assortimentda ta'minlanishi, ularning aylanishini tezlashtirish va to'liq foydalanish hisoblanadi.

Fondlar qaytimining o'sishi xizmat ko'rsatish korxonasining moliyaviy natijalari yaxshilanganligi va asosiy kapitalga nisbatan siyosat to'g'ri yo'nalishda olib borilayotganidan dalolat beradi. Fondlar qaytimining o'sishi ishlab chiqarish asosiy fondlarining nisbatan tejalishi va ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmining oshishiga olib keladi. Ko'rsatilgan xizmatlar yoki foydaning nisbiy o'sishi tahlil qilinayotgan davr uchun asosiy vositalar qiymatining nisbiy o'sishidan oshsa, asosiy vositalardan foydalanish samarali hisoblanadi.

Fondlar qaytimining o'sishi hisobiga ko'rsatilgan xizmatlar ulushining o'sishi tahlil qilinayotgan davr uchun fondlar qaytimining o'sishi va asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik haqiqiy qiymatiga ko'paytmasi sifatida aniqlanadi:

$$\Delta X_{o'} = (FQ_1 - FQ_0) \times K_{AF1}, \quad (8)$$

bu yerda, $\Delta X_{o'}$ – xizmatlarning o'sishi;

FQ_1 – hisobot davridagi fondlar qaytimi;

FQ_0 – o‘tgan davridagi fondlar qaytimi;

K_{AF1} – hisobot davridagi asosiy ishlab chiqarish fondlarining o‘rtacha yillik qiymati.

Xizmat ko‘rsatish korxonasi kapitalining yana bir tarkibiy qismi aylanma mablag‘lar hisoblanadi. Aylanma mablag‘lardan foydalanish samaradorligi ularning aylanish tezligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri mutanosibdir. Aylanma mablag‘larni tezlashtirish xizmat ko‘rsatish korxonasiga qo‘shimcha xizmatlar ko‘rsatish va to‘lov qobiliyati hamda moliyaviy barqarorlikni oshirish uchun aylanmadan ma‘lum mablag‘larni bo‘shatish imkonini beradi.

Tovar aylanmasining o‘shishi hisobiga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmining o‘shish miqdorini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$\Delta X_{o'} = \Delta K_a \times \Delta K_{o'} = (K_{a1} - K_{a0}) \times K_{o'}, \quad (9)$$

bu yerda ΔK_a – aylanish koeffitsiyentining o‘zgarishi;

$\Delta K_{o'}$ – hisobot davrida aylanma mablag‘larning o‘rta yillik qiymati.

K_{a1} – hisobot davrida aylanuvchanlik koeffitsiyenti;

K_{a0} – o‘tgan davrida aylanuvchanlik koeffitsiyenti.

Xizmat ko‘rsatish jarayonlari samaradorligini tahlil qilish va xizmat ko‘rsatish darajasini yaxlit baholash har bir boshqaruvchining xizmat ko‘rsatish korxonasi faoliyati ustidan nazorat qilish tizimining asosini tashkil qiladi. Olingan ko‘rsatkichlar xodimlar va tashkilot rahbari harakatlarining to‘g‘riligi ko‘rsatkichlari bo‘lib, kamchiliklarni bartaraf etish va xizmat ko‘rsatish korxonasining samaradorligini oshirishni ta‘minlaydigan o‘z vaqtida qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Dissertatsiya ishining **“Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanish holati va korxonalar faoliyati samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida respublikada xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanish holati va tendensiyalari hamda servis korxonalarida xizmat ko‘rsatish jarayonlari samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tahlil qilingan. Shuningdek, servis korxonalar faoliyati rivojlanishining omilli tahlili amalga oshirilgan.

Xizmat ko‘rsatish sohasi innovatsion rivojlanish konsepsiyasiga muvofiq mamlakatimizning yuqori darajada iqtisodiy o‘shishini ta‘minlashning zamonaviy tarmoqlari va korxonalarini o‘z ichiga olmoqda. Xizmat ko‘rsatish sohasi iqtisodiy o‘shish, savdo hajmining oshishi va yangi ish o‘rinlari sonining ko‘payishiga munosib hissa qo‘shgan holda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlamoqda. Shu bilan birga xizmat ko‘rsatish sohasi iqtisodiyotning boshqa birdek muhim tarmoqlarini rivojlantirishni rag‘batlantiradi va mamlakatdagi raqobat muhiti va sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilanishini ta‘minlaydi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirish jamiyat rivojlanishining sifat ko‘rsatkichlarini ta‘minlashda muhim o‘ringa ega bo‘lib, servis faoliyati bilan bog‘liq an‘anaviy va jadal sur‘atlarda kengayib borayotgan zamonaviy tarmoqlarni o‘z ichiga oladi. Tahliliy

ma'lumotlarga e'tibor qaratsak, respublikada jami xizmatlar hajmi 2024-yilda 28820,8 mlrd. so'mdan iborat bo'lib, bu ko'rsatkich 2020-yilga nisbatan 4,4 martaga o'sgan. Mintaqada eng yuqori o'sish su'r'atlariga ega tarmoqlar sifatida moliya xizmatlari (2,7 marta), ta'lim xizmatlari (2,5 marta), sog'liqni saqlash xizmatlari (3,5 marta), shaxsiy xizmatlar (3,1 marta), kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash (3,6 marta), savdo xizmatlari (2,9 marta)ni misol qilib keltirish mumkin. Biroq sohada yashash va ovqatlanish xizmatlari (65,1 marta) pasaygan. Xizmat ko'rsatish sohasida jami ko'rsatilgan xizmatlar hajmining o'sib borishi turmush sifati va darajasini oshirishda asosiy vosita sifatida servis iqtisodiyoti rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi (2-jadval).

2-jadval

Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasi va tarmoqlarida xizmatlar turlari bo'yicha hajmi⁸ (mlrd. so'm)

Sohalar va tarmoqlar	Yillar					2020-2024 y.y.da o'zgarish, (%)
	2020	2021	2022	2023	2024	
Jami xizmatlar Shu jumladan:	6520,3	8458,4	10595,3	12875,6	28820,8	4,4 marta
Aloqa va axborotlashtirish	383,1	448,7	555,7	680,5	997,9	2,6 marta
Moliya xizmatlari	1287,9	1692,1	2232,0	2961,6	3516,0	2,7 marta
Transport xizmatlari	1673,4	2303,7	2867,0	3180,8	4265,3	2,5 marta
Shu jumladan: avtotransport xizmatlari	860,5	1159,4	1275,4	1557,0	2582,8	3,0 marta
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	168,9	185,5	277,6	403,6	10994,2	65,1
Savdo xizmatlari	1547,3	1913,8	2177,7	2714,3	4546,6	2,9 marta
Ko'chmas mulk bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar	165,3	206,4	245,6	317,8	450,5	2,7 marta
Ta'lim xizmatlari	369,1	568,1	694,2	755,9	940,5	2,5 marta
Sog'liqni saqlash xizmatlari	74,3	99,9	127,9	159,2	262,3	3,5 marta
Ijara xizmatlari	140,1	159,4	204,5	210,4	308,1	2,2 marta
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash	189,1	239,9	301,5	375,9	686,2	3,6 marta
Shaxsiy xizmatlar	235,3	304,2	387,8	500,4	731,3	3,1 marta
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	89,8	92,5	165,7	174,1	247,6	2,8 marta
Boshqa turdagi xizmatlar	196,7	244,2	358,1	441,2	874,3	4,4 marta

Aytish kerakki, servis faoliyatini xizmat ko'rsatish jarayonidagi o'rni bo'yicha asosiy va qo'shimcha xizmatlarga bo'lish mumkin. Asosiy xizmatlar texnologik jarayonning mohiyatini tashkil qiladi. Ushbu xizmatlar asosiy ehtiyojni qondirishda ko'mak berish uchun mo'ljallangan va aksariyat hollarda ularning narxi asosiy profildagi xizmatlarning narxiga kiritiladi. Qo'shimcha

⁸ Manba: Qoraqalpog'iston Respublikasi Davlat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida hisoblangan.

xizmatlar iste'molchining iltimosiga ko'ra amalga oshiriladi va uning hisobidan to'lanadi. Xizmatlarni asosiy va qo'shimcha turlarga bo'lish ichki guruh tasnifini tuzish imkonini beradi.

Mintaqada xizmat ko'rsatish korxonalari va tashkilotlarida 2024-yil boshida mehnat unumdorligining o'sishi sur'ati yuqori bo'lib, o'tgan yilga nisbatan "Taxiatosh neft bazasi" MChJda qariyb 2,4 martaga, "Kapitalbank" Nukus filialida 199,4 %ga, "Nukus xalqaro aeroporti" MChJda 132,9 %ga o'sgan. 2024-yil boshida fondlar qaytimi "Aloqabank" QR filialida – 1,50 so'm, "Kapitalbank" Nukus filialida – 1,58 so'm, "O'zagrosug'urta" AJda – 1,66 so'm, "Taxiatosh neft bazasi" MChJda – 1,56 so'm tashkil etib, yuqori bo'lgan. Ushbu ko'rsatkich "Nukus xalqaro aeroporti" MChJda eng past bo'lib – 0,46 so'mni tashkil etgan. Personal salohiyati ko'rsatkichi bo'yicha 2024-yil boshida "Aloqabank" QR filiali (90,0%), "Kapitalbank" Nukus filiali (91,0%), "O'zagrosug'urta" AJ (77,0%) yuqori ulushga ega (3-jadvalga qarang). Mazkur jadvaldagi tahlil qilinayotgan korxonalar va tashkilotlarda personal salohiyatini yuqori bo'lishi ish o'rinlarining intellektuallashuvi darajasi ancha yuqori bo'lishni zarurat etadi. Mahsulot (xizmat) sotish rentabelligi tahlil qilinayotgan korxonalar va tashkilotlar bo'yicha deyarli farq qilmaydigan o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan.

3-jadval

Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatish korxonalarining iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari (yil boshiga)⁹

Ko'rsatkichlar	Korxonoma nomi	"Aloqabank" QR filiali	"Kapitalbank" Nukus filiali	"O'zagrosug'urta" AJ	"Universal mobile systems" MChJ	"Nukus xalqaro aeroporti" MChJ	"Taxiatosh neft bazasi" MChJ	"Rembittex servis" XK	"INTERIOR DESIGN 21" MChJ
	Yillar								
Sof foyda, mln. so'm	2023	2618,9	6622,1	484,3	2112,6	998,7	586,4	39,1	36,7
	2024	2934,7	13447,5	512,9	2302,7	1125,8	1340,6	42,5	37,9
Mehnat unumdorligi o'sishi, %	2023	108,4	186,8	104,0	116,5	125,7	174,5	105,0	107,5
	2024	108,7	199,4	104,5	117,4	132,9	237,9	105,5	108,5
Fondlar qaytimi, so'm	2023	1,48	1,55	1,65	1,25	0,45	1,55	1,27	1,30
	2024	1,50	1,58	1,66	1,27	0,46	1,56	1,28	1,32
Personal salohiyati, %	2023	88,0	89,0	75,0	65,0	68,0	58,0	60,0	67,0
	2024	90,0	91,0	77,0	69,0	68,0	60,0	60,0	67,0
Mahsulot (xizmat) sotish rentabelligi, %	2023	5,5	3,4	3,8	3,9	3,5	4,3	4,6	4,7
	2024	5,6	3,4	3,7	3,5	2,9	4,0	4,7	4,4

4-jadvalda Qoraqalpog'iston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan xizmat ko'rsatish korxonalari va tashkilotlarining asosiy fondlar bilan ta'minlanganligi va samaradorligi ko'rsatkichlari bo'yicha tahliliy ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, bunda 2023-2024 yillar boshida fondlar sig'imi, fondlar bilan qurollanish darajasi, o'z mablag'larining asosiy vositalar bilan ta'minlanganligi, asosiy fondlar

⁹ Jadvalda keltirilgan korxonalarining yillik statistik hisobotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

rentabelligi, asosiy fondlarning daromadliligi ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi dinamikasi aks ettirilgan. Ushbu jadvalning tahliliy natijalari bo‘yicha xulosalar chiqarsak: tanlab olingan xizmat ko‘rsatish korxonalari va tashkilotlarida fondlar sig‘imining pasayishi xizmat ko‘rsatish jarayonlari samaradorligini oshishiga olib keladi; fondlar bilan qurollanish darajasining oshib borishi xizmat ko‘rsatish jarayonlarida buyumlashgan mehnat sarfini, shuning raqamli xizmatlar ko‘rsatish darajasini oshiradi; o‘z mablag‘larining asosiy vositalar bilan ta‘minlanganligi darajasining ortishi asosiy fondlardan qay darajada foydalanilayotganini ifodalaydi; asosiy fondlar rentabelligi asosiy fondlardan samarali foydalanish hisobiga sof foyda hajmini oshishini ifodalovchi samaradorlik ko‘rsatkichi hisoblanadi; asosiy fondlar daromadliligining o‘shishi iqtisodiy samaradorlik oshishini ta‘minlaydi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, servis faoliyatida mehnat unumdorligi ko‘rsatkichining pastligi unda moddiy ishlab chiqarish tarmoqlariga nisbatan xizmat ko‘rsatish sohasida band ishchi-xodimlar ish haqining pastligidir. Biroq xizmatlarning ayrim turlarini ko‘rsatuvchi xodimlar ish haqi, moddiy ishlab chiqarish sohasi xodimlariga nisbatan bir muncha yuqoridir (masalan, injiniring xizmatlari, konsalting xizmatlari, moliyaviy xizmatlar, sug‘urta xizmatlari va hokazolar).

4-jadval

Qoraqalpog‘iston Respublikasida tanlab olingan xizmat ko‘rsatish korxonalari va tashkilotlarining asosiy fondlar bilan ta‘minlanganligi va samaradorligi ko‘rsatkichlari¹⁰

Ko‘rsatkichlar	Korxonalar nomi	“Aloqabank” QR filiali	“Kapitalbank” Nukus filiali	“O‘zagrosug‘ o‘rta” AJ	“Universal mobile systems” MChJ	“Nukus xalqaro aeroporti” MChJ	“Taxiatosh neft bazasi” MChJ	“Rembittex servis” XK	“INTERIOR DESIGN 21” MChJ
	Yillar								
Fondlar sig‘imi, so‘m	2023	0,68	0,65	0,61	0,80	2,22	0,65	0,79	0,77
	2024	0,67	0,63	0,60	0,79	2,17	0,64	0,79	0,76
Fondlar bilan qurollanish darajasi, mln. so‘m	2023	534,2	1648,7	361,3	688,3	697,1	284,5	85,8	85,0
	2024	572,8	3228,4	375,4	795,4	906,3	672,7	90,5	91,0
O‘z mablag‘larining asosiy vositalar bilan ta‘minlanganligi, so‘m	2023	0,92	0,87	0,76	1,09	3,0	0,86	1,01	1,04
	2024	0,91	0,85	0,80	1,06	2,9	0,86	1,06	1,01
Asosiy fondlar rentabelligi, %	2023	6,5	4,2	5,0	3,9	1,2	5,3	4,6	4,8
	2024	6,7	4,3	4,9	3,6	1,1	5,0	4,7	4,6
Asosiy fondlarning daromadliligi, so‘m	2023	28,9	30,2	33,2	24,6	8,9	32,0	27,1	26,9
	2024	29,7	30,7	33,2	25,0	9,0	30,7	27,0	26,0

Rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlari tajribasi shundan dalolat beradiki, xizmat ko‘rsatish sohasi faoliyatining samaradorligi hamda iqtisodiy

¹⁰ Jadvalda keltirilgan korxonalarining yillik statistik hisobotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

